



Xalq so'zi

2025-YIL — ATROF-MUHITNI ASRASH VA “YASHIL” IQTISODIYOT YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqqan boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2025-yil 15-iyul, № 143 (9038)

Seshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



Biz va jahon



DO'STLIK BO'STONI

Qirg'iz Respublikasining Issiqko'l viloyatidagi Ton tumanida O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi tomonidan bunyod etilgan “Bo'ston Resort” dam olish majmuasining dastlabki bosqichi foydalanishga topshirildi. Shu yilning 12-iyul kuni mazkur sihatgohning tantanali ochilish marosimi bo'lib o'tdi.

Marosimda har ikki qardosh mamlakatdan kasaba uyushmalari faollari, ijodkor-ziyolilar hamda Qirg'iz Respublikasidan faxriy mehmonlar qatnashdi.

Mehmonlar urf-odatlarimizga ko'ra karnay-surnay, doira sadolari ostida tantanali kutib olindi. Shu asno martabali mehmonlar ishtirokida “Bo'ston Resort” dam olish maskanining ramziy tasmasi qirildi. Qo'y so'yilib, ehson marosimi o'tkazildi. Qur'on tilovat qilindi. Yig'ilganlar mamlakatlarimizning istiqbolli hamkorligi, xalqlar o'rtasidagi birodarlik, quda-andachilik rishtalari abadiy bo'lishini tilab duoga qo'l ochdi.

Marosim davomida so'zga chiqqanlar so'nggi yillarda ikki davlat rahbarlarining qat'iy siyosiy irodasi tufayli O'zbekiston va Qirg'iziston o'rtasidagi aloqalar butunlay yangi shakl va mazmun kasb etganini ta'kidladi.

Mamlakatlarimiz o'rtasida chegaralar ochilgani xalqlarimizning o'zaro bordi-keldini qayta tiklashida, asrlar sinovidan o'tgan do'stlik, qardoshlik munosabatlarini yanada mustahkamlashida muhim ahamiyat kasb etdi.

Issiqko'l sohilida qad rostlagan dam olish maskani mintaqada turizmni yanada rivojlantirish, yangi ish o'rinlarini yaratish bilan birga, mamlakatlar o'rtasida iqtisodiy hamkorlikni mustahkamlash, xalqlarimizni yanada jipslashtirishga xizmat qiladi. “Bo'ston Resort” chinakam do'stlik bo'stoniga aylanadi.

Tadbir chog'ida qurilish jarayonlarida faol qatnashgan mas'ullar va quruvchilar taqdirlandi. Ularga o'zbek urf-odatlariga asosan to'n kiydirildi.

O'zbek – qirg'iz san'atkorlari ishtirokidagi konsert dasturi yig'ilganlarga xushkayfiyat ulashdi.

“Xalq so'zi”.



Yangi sahifa:

O'zbek bolasi borki, beshikni biladi, yaxshi ko'radi, unga bir muqaddas narsasidek qaraydi. Chunki u go'dakligida shu beshikda yotgan, uning bag'rida ilk bor alla eshitgan, halovat topgan. Shu beshik uni xavfsiz asragan, avaylagan. Mitti jism va murg'ak qalbning butun borlig'i ham, boyligi ham, dunyosi ham shu beshik bo'lgan. Xuddi ona kabi. Xuddi Vatan singari. Xalqimiz beshikni Vatanga qiyoslashi bejiz emas. “Ona yurtning – oltin beshiging” degan purma'no naql zamirida ulug' hikmat mujassam.

Gazetamizda “Oltin beshik” atalmish yangi sahifa tashkil etarkanmiz, avvalo, Vatan haqida so'z aytilish, uning muqaddasligiyu mo'tabarligini madh etish, har birimizning hayotimizdagi, kamolotimizdagi beqiyos ahamiyatini sodda va samimiy ifodalash imkoniyatini mustariylarimizga ilindik.

Shubhasiz, aziz va jonajon Vatanimiz o'tmishi, milliy qadriyatlari, buyuk allomalari, madaniy merosi haqida shu paytgacha qadar qanchadan-qancha kitoblar bitilgan, tadqiqotlar qilingan, adabiy asarlar, san'at durdonalari yaratilgan. Ammo O'zbekiston atalmish sohir o'lkaning tarovati, nafosati, buyukligini tarannum etish uchun hamisha yangi so'z aytilish mumkin.

Zotan, Vatan tuprog'ining zarra, yurt tarixining har sahifasi, xalqimiz ma'naviy dunyosining har bir iqlimi hali biz anglab yetmagan sir-sinoatlarga, hikmatlarga boy. Shu bois mazkur sahifada buyuk

ajdodlarimiz merosi, adabiyotimiz darg'alarining betakror asarlari, tariximizning bizga ayon va noayon zarvaraqalari haqida qiziqarli maqolalar, lavhalar berib borishga qaror qildik.

Xalqimiz Vatanimiz mustaqilligining 34 yilligini ko'tarinki ruhda nishonlashga qizg'in tayyorgarlik ko'rmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning shu yil 10-iyuldagi “O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o'ttiz to'rt yillik bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida”gi qaroriga muvofiq bu yilgi ayyom tadbirlari “**Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!**” degan ezgu g'oyani o'zida mujassamlagan g'oyaviy-badiiy konsepsiya asosida nishonlanadi.

Shu ma'noda, biz tashkil etayotgan sahifa mohiyatan ayni shu shior mazmuniga uyg'un bo'lib, unda istiqbol tufayli Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun, umuman, barchamizning



➡6

baxtu saodatimiz yo'lida olib borilayotgan islohotlar keng yoritiladi. Ayniqsa, keyingi yillarda mamlakatimizda yuz berayotgan tarixiy o'zgarishlar, turli sohalaridagi yangilanishlar, hududlarimizning o'ziga xos tomonlari, urf-odatlar va an'analari, xalqimizning ardoqli farzandlari, atoqli olimlar, fan, ta'lim, madaniyat hamda san'at namoyandalari bilan suhbatlar, o'zbek va jahon adabiyoti durdonalari berib boriladi.

Umid qilamizki, ushbu sahifa Siz, aziz gazetxonlarni befarq qoldirmaydi. E'lon qilinayotgan maqolalar, suhbatlar, adabiy asarlar, lavhalar xususida mustariylardan fikr-mulohazalar kutib qolamiz.

Tahririyat.

KATTA SHAHARNING



➡5

“KICHIK” MUAMMOLARI

Tahlil

Islohotlarni joylarda samarali amalga oshirish — pirovard maqsad

➡4

Forum

Madaniyatlararo muloqotni mustahkamlovchi anjuman

Shu kunlarda Belarus Respublikasida X xalqaro “Hamdo'stlik bolalari” madaniy-ma'rifiy forumi bo'lib o'tmoqda.

Mazkur an'anaviy nufuzli tadbirda O'zbekiston, Armaniston, Belarus, Qozog'iston, Qirg'iziston, Rossiya, Tojikiston va Turkmanistondan 14 – 17 yoshdagi maktab o'quvchilari hamda ularning ustozlari ishtirok etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Raisi Tanzila Norboyeva forum ishtirokchilariga yo'llagan tabrigida “Hamdo'stlik bolalari” forumi bugungi kunda MDH mamlakatlari yoshlari o'rtasida do'stlik, o'zaro hurmat va madaniyatlararo muloqotni mustahkamlashga xizmat qiladigan yaxshi an'anaga aylanganini ta'kidladi.

Tadbir doirasida O'zbekiston kuni keng nishonlandi. Unda mamlakatimizning boy madaniy merosi, milliy urf-odat va an'analari keng jamoatchilikka taqdim etildi.

O'zbekistonlik maktab o'quvchilari xalq qo'shiqlari va raqsalarini ijro etdi hamda milliy o'yinlar namoyishini tashkil qildi. Shuningdek, forum ishtirokchilari o'zbek musiqasi va adabiyoti bilan yaqindan tanishish, milliy taomlardan tatib ko'rish imkoniga ham ega bo'ldi.

“Xalq so'zi”.

Siyosiy partiyalar fraksiyalarida

TA'LIM-TARBIYA USTUVORLIGI VA HUQUQIY NORMALAR KAFOLATI

Siyosiy partiyalarning Oliy Majlisi Qonunchilik palatasidagi fraksiyalarining yig'ilishlari bo'lib o'tdi. Ularda quyi palataning navbatdagi majlisi kun tartibiga kiritilishi rejalashtirilayotgan qator qonun loyihalari atroflicha ko'rib chiqildi.

Tadbirkorlar va ishbiarmonlar harakati – O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida dastlab davlatimiz rahbari raisligida joriy yil 9-iyul kuni yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash, infratuzilmasini yaxshilash va tirbandliklarni kamaytirish chora-tadbirlari yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishidagi taklif va tashabbuslarning ahamiyati xususida so'z yuritildi.

Deputatlar “Xavfsiz yo'l” milliy dasturi yo'llarimizni obod qilish bilan bir qatorda, piyodalarning xavfsizligi uchun ham muhim ahamiyatga ega ekanini qayd etishdi. Shuningdek, davlatimiz rahbari tomonidan belgilab berilgan topshiriqlardan kelib chiqib, partiya va uning parlamentdagi fraksiyasi oldida turgan ustuvor vazifalar belgilab olindi.

Kun tartibidagi navbatdagi masala – ta'lim xizmatlarini ko'rsatish sohasini takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi ko'rib chiqildi.

Bu bilan “O'zbekiston Respublikasining faxriy unvonlarini ta'sis etish to'g'risida”gi, “Ta'lim to'g'risida”gi, “Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida”gi, “Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to'g'risida”gi hamda

“Pedagogning maqomi to'g'risida”gi qonunlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish nazarda tutilmoqda.

Mazkur qonunlarda “maktabdan tashqari” atamasi “qo'shimcha ta'lim”ga almashtirilyapti. “Ta'lim to'g'risida”gi Qonunda qo'shimcha ta'lim bolalar uchun ta'lim va katta yoshdagilar uchun qo'shimcha ta'lim turlariga ajratilmoqda. Bunda qo'shimcha ta'lim bolalar va katta yoshdagilarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish va kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirishga, intellektual va jismoniy takomillashuvga bo'lgan individual ehtiyojlarini qondirishga, sog'lom turmush tarzini shakllantirishga, salomatlikni mustahkamlashga va bo'sh vaqtlarini samarali tashkil etishga qaratilishi nazarda tutilmoqda.

Shu bilan birga, “Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to'g'risida”gi Qonunda bolalar orasida qo'shimcha ta'lim faoliyatini boshlash uchun Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligini, katta yoshdagilar uchun esa Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligini xabardor qilishning amaldagi tartibi saqlab qolinmoqda.

Muhokamadan so'ng qonun loyihasi fraksiya a'zolari tomonidan qo'llab-quvvatlandi.

TARIX SINOVLARIDAN O'TGAN HAQIQAT

O'zbek va qirg'izni hech kim va hech qanday kuch bir-biridan ayira olmaydi

Qirg'iziston bizning muhim strategik hamkorimiz, eng yaqin qo'shnimiz va vaqt bilan sinalgan do'stimizdir.

Shavkat MIRZIYOYEV,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti



Ўзбекистон, Қирғизистон ва Тожикистон дўстлиги тимсоли бўлган «Дўстлик» стеласи.

Hech esimdan chiqmaydi, aynan o'sha yillari sobiq markazning bosh mafkuraviy-siyosiy jarchisi bo'lgan "Pravda" gazetasida (1988-yil 13-fevral) dunyoga mashhur adib Chingiz Aytmatovning "Qayta qurish, oshkoralik – omonlik daraxti" ("Perestroika, glasnost – drevo vsjivaniya") maqolasi bosildi. Maqola mazmun-mohiyatiga ko'ra, sobiq markaz tomonidan ayovsiz siquvga, siyosiy repressiyaga tortilgan O'zbekiston va o'zbek xalqi himoyasiga qaratilgan edi.

Aytmatov unda, jumladan, shunday degandi:

«O'zbek xalqining mamlakat uchun qilgan mehnatini birmabir sanayversak, bularning bari boshimizni quyi egib, ta'zim etishga arziydi. Qadim-qadimdan o'zbek madaniyatining O'rta Osiyoga ko'rsatgan ta'sirini ko'hna Vizantiyaning Qadim Rusga ko'rsatgan ta'siri bilan qiyoslash mumkin.

Sovetgacha bo'lgan davrlarda va sovet davrida ham O'zbekiston bizning Sharqdagi so'zimiz yuzimiz bo'lib keldi. Yo'q, o'zbek xalqining bokira yuziga hech narsa dog' tushirolmaydi!..»

Ayni shu iqtibos o'zbek matbuoti va adabiyotida – maqolalar, ilmiy ishlar va badiiy asarlarda juda ko'p bor faxr bilan tilga olingan. Ammo bu yoniq so'zlar qancha ko'p e'tirof etilmasin ohori to'kilmaydi, qiymati pasaymaydi.

2

So'zimning avvalidayoq aytib qo'yay, men bu safar global masalalar haqida emas, ko'proq oddiy odamgarchilik, insoniy samimiyat, soddaroq aytganda, qo'shnilarning bir-birlariga bo'lgan mehri, samimiyati o'rtadagi vaziyatni qanday o'zgartirib yuborishi xususida gapirmoqchiman. Zotan, ayni hodisa bugun ikki xalq, ikki mamlakat

hayotida kuzatayotganimiz do'stona munosabatlarning buyugidir.

Hech esimdan chiqmaydi: Prezident Shavkat Mirziyoyev ish boshlagan ilk kezlardayoq Jizzax viloyatining Do'stlik tumanidagi Manas qishlog'ini obod qilishga kirishgan va bundan ko'pchilik hayron bo'lgandi. Ochiq aytaman, o'sha kezlari oramizda "o'zimizning qishlog'u mahallalar qolib, nega Manas obodonlashtiriladi" deguvchilar ham bo'lgandi. Asosan, etnik qirg'izlar yashovchi bu ovul sovet zamonlarida tashkil etilgan bo'lib,

milliy ayirmachilik mintqa davlatlari birdamligiga monelik qiluvchi asosiy "mafkura" bo'lganini bugun hammamiz yaxshi tushunamiz.

Holbuki, o'zbeku qirg'iz, umuman, mintaqamiz xalqlarini faqat "oshxona madaniyati" bir-biriga bog'lab turmaydi. Ikki xalq taqdirining uyqashligi, et bilan timoqday bitta ekanining yana bir misoli sifatida ellarimiz muammolarining yakrangligini ham keltirish mumkin. Masalan, ishsizlik va migrantlar masalasi... Bilasiz, bu muammoning oxirgi 25 yil davomida yagona



uzoq yillar "ko'zdan panada" qolib kelganini hammamiz yaxshi bilardik. Shavkat Mirziyoyevning keyinchalik butun mamlakat bo'ylab quloq yoygan "Obod qishloq" dasturi nega aynan shu yerdan boshlanganini bugun ko'pchilik tushundi. O'zbekistonning yangi rahbari bu harakati bilan "Biz bir elmiz, bir xalqmiz, bizning tomirimiz bitta" degan asl haqiqatga ishora qilgan edi. Zotan, sovet zamonlarida shakllangan, to'g'rirog'i, katta "og'a"imiz zug'umi bilan sun'iy yuqtirilgan va undan keyin ham bepisandlik bilan qaralgan

yechimi mehnat migratsiyasi bo'ldi. Bundan ham og'irrogi chegaralar va transchegaraviy daryolar atrofidagi masalalar edi. Ular mohiyatan juda qiyin, uzoq yillardan beri yechim kutayotgan yumushlar edi.

Yildan-yilga chigallashib, ikki tomonni ham tobora o'zining qa'riga tortib borayotgan bu "qora tuynuk"ning og'zini biza kim yopib, muammolarimizni kim hal qilib berardi? Hech kim! Buning uchun esa, avvalo, mintaqadagi ijtimoiy-mafkuraviy muhit – xalqlarimizning tafakkurini o'zgartirish talab etilardi.

Shunday og'ir pallada Shavkat Mirziyoyevning dastlabki jur'atli qadamlari – chegara, suv havzalari va daryolardan foydalanish hamda iqtisodiy-madaniy jabhalardagi hayotbaxsh o'zgarishlar o'zaro munosabatlarni tezkor va har jihatdan yaxshilashning noyob namunasi sifatida ko'pchilikni hayratga solgani bor gap. So'z isboti bilan bo'lishi uchun aniq misol keltiraman: Qirg'izistonda 2016-yili, ya'ni o'zgarishlargacha bo'lgan davrda o'tkazilgan ijtimoiy so'rovda ishtirokchi – respondentlar O'zbekistonni eng nodo'st davlatlardan biri, deb hisoblagan bo'lsa, 2017-yilgi so'rovlarda eng yaqin do'st mamlakatlardan biri sifatida qayd etishgan... O'zaro aloqalarning bunday tez ilqilashuvi nafaqat xalqlarimiz, balki xalqaro hamjamiyat, mahalliy siyosatchilar, mustaqil ekspertlarning ham e'tiborini tortdi. Masalan, yuqorida ismini keltirganimiz qirg'izistonlik ekspert Emilbek Jo'rayev o'z maqolasida shunday yozadi:

«2024-yil 18-19-iyul kunlari Prezident Sadir Japarovning O'zbekistonga davlat tashrifi amalga oshirildi. Ikki davlat rahbarlari va o'zaro muzokaralarning boshqa qatnashchilari yakunda hamkorlikning turli yo'nalishlariga doir 16 ta hujjatni imzoladilar, istiqboldagi mahobatli va ayni paytda hayotiy maqsadlarni belgilab oldilar.

Qirg'iz matbuoti Prezident Shavkat Mirziyoyevning, ikki mamlakat munosabatlaridagi konstruktivizm prinsipini (win-win) aniq-tiniq ifodalagan "Bizga kuchli va farovon qo'shni – Qirg'iziston kerak", degan so'zlarini iqtibos qildi. Bu – shunchaki mehmondorchilik yoki ehtirom belgisi emas, balki ikki birodar davlatning chinakam do'stona munosabatlari tasdig'i sifatida qabul qilindi. Zero, bir mamlakatning gullab-yashnashi va farovonligiga unga qo'shni yurtda ham shunday shart-sharoit barqaror bo'lgandagina erishish mumkin».

3

Emilbek Jo'rayev Prezident Shavkat Mirziyoyevning "Bizga kuchli va farovon qo'shni – Qirg'iziston kerak", degan xitobi qirg'iz matbuotining sarlavhasiga aylanganini aytar ekan, bu bilan bir haqiqatni tasdiqlaydi. Ha, o'zbek Liderining yurakdan istagan, qalbini yondirgan niyat shu edi. Bu istak, kuchli xohish, garchi baralla aytilmagan bo'lsa-da, aynan o'sha Manas qishlog'ini obod qilish ishlari boshlangan kezlarda kurtak yozgan edi.

Yuqorida Xalqaro respublika instituti tomonidan 2017-yil Qirg'izistonda o'tkazilgan aholi ijtimoiy fikri so'rovida qardoshlarimiz O'zbekistonni eng do'st mamlakat, deya baholaganini 2024-yil Olimpiada musobaqalari jarayonlarida ham ko'rib juda quvondim. Ikki qondosh xalq bir-birining sportchilarini xuddi o'zini kidek qo'llab-quvvatlashdi, yordam berishdi. Shunda aniqroq ko'rdimki, do'stlik va birdamlik yanada mustahkamlanibdi, xalqlarimiz tomirlarimiz ham, taqdirimiz ham bir ekanini yanada chuqurroq anglabdi.

Yana men buyuk yozuvchimiz Chingiz og'adan olingan iqtibosdagi biza bo'lgan jonkuyarlik, mehr va samimiyatni, "o'zimniki" deya qayg'urishni ana shu musobaqalardagi bir-biriga qayishishda ko'rdim...

Bular – juda katta tarixiy yutuq!

4

Albatta, bu kabi hodisalar o'z-o'zidan sodir bo'lmaydi. Bunday tarixiy missiyalarni amalga oshiradigan shaxslar bo'ladi. Taqdir xalqlarimiz baxtiga shunday Liderlarni berdi. Bir-birini og'am, inim, deya munosabat yuritayotgan Shavkat Mirziyoyev va Sadir Japarovlar haqida bundan boshqa yana qanday ta'rif berish mumkin?!

Bir zamonlardagidek "sen zo'rmi, men zo'r" qabilidagi "hamkorlik"lardan tamoman voz kechgan ikki rahbar mamlakatlarimizning gullab-



yashnashiga, yaqin qo'shnichilik aloqalarining mustahkamlanishiga tamal toshini qo'ydi, desam, mubolag'a bo'lmaydi. Eng muhimi, o'zaro hurmat, maslahat va samimiyat munosabatlarimizni yanada ilqilashtirmoqda.

Men mintaqamiz siyosiy hayotini juda uzoq yillardan buyon kuzatib kelaman va bu jarayonda ilgari bo'lmagan bir nozik masala diqqatimni tortadi: bizda qo'shni davlatlar rahbarlari bir-biri haqida juda kam hollarda ilqiy fikrlar bildirgan. Aytilgan gaplar ham ko'pincha siyosat yoki protokol uchun bo'lgan. Mirziyoyev va Japarov o'rtasidagi munosabatlar og'a-ini o'rtasidagi jondoshlik muomalasiga o'xshaydi. Masalan, shu yil (2025-yil) boshida Sadir Japarov O'zbekistonga keldi. Jurnalistlarimiz "rasmiy" deb sharhlagan bu tashrif poytaxt – Toshkent yoki mamlakatimizning boshqa markaziy shaharlariga emas, Toshkent viloyatining Bo'stonliq tumanidagi "Amirsoy" kurort majmuasiga amalga oshirildi. U yerda ikki davlat rahbari oddiy odamlardek, ya'ni ortiqcha siyosiy "shtrix"larsiz o'tirib, suhbatlashganini aks ettiruvchi suratlar o'sha kuni matbuot va ijtimoiy tarmoqlarda tarqaldi.

"Galstuksiz" uchrashuv, tabiiyki, har ikki davlat jamoatchiligida, jamiyatlarida qizg'in muhokama qilindi. Chunki biz bunday "vizit"larni ko'rmagan edik, ko'zimiz o'rganmagan edi...

5

2021-yil 28-yanvarda "VVS"ning qirg'iz xizmati Sadir Japarov bilan suhbat o'tkazdi. Muxbirning "Qirg'izistonda siyosiy boshqaruv formasi almashinuvida sizning



Prezidentlik «iqtidor»ingiz avtoritar boshqaruvga aylanib ketmaydi, deb kafolat bera olasizmi?» degan savolga javob berarkan Sadir Japarov o'z fikr va qarashlarini bugungi O'zbekiston va uning yetakchisi Shavkat Mirziyoyev faoliyati va olib borayotgan siyosati misolida ifodalashga harakat qildi:

– **Bu har bir odamning o'ziga bog'liq,** – dedi u, jumladan. – **Menda avtoritar boshqaruvni o'rnataman, degan niyat yo'q, unday bo'lmaydi ham. Bunga kuchimiz ham, salohiyatimiz ham yetadi. Vaqti kelsa, buning isbotini ko'rasizlar. Biz qonuniylik va adolat diktaturasini o'rnatishga qodiriz. Alloh nasib etsa, buni o'rnatamiz ham. Bunga misol sifatida qo'shni O'zbekistonni aytishim mumkin. U yerda o'tgan davrda kuchli**

diktatura bor edi. Buni dunyo ham, biz qo'shni davlatlar ham bilganmiz. Shavkat Miromonovich Mirziyoyev kelganidan so'ng diktaturani olib tashlab, dunyoga eshigini ochdi. Mana, hozir qanday o'zgarishlar bo'lyapti. Agarda u xohlasa, ishni an'anaviy uslubda davom ettirib ketsa bo'lardi. Biroq u bunday qilmadi, mamlakatni ochdi. Qo'shnilar va olis xorijdagi davlatlar bilan do'stona hamkorlikni tikladi. Shuning uchun ham bugun O'zbekistonga investitsiya kirib, iqtisodiy o'sish bo'lyapti, xalqning turmushi yangilanyapti. Shu sababdan ham hammasi odamning o'ziga bog'liq, deyman...

6

So'zimiz avvalida qirg'izistonlik siyosiy tahlilchining "...ba'zi o'rinlarda oliy rahbariyatlar (qirg'iz – o'zbek) o'rtasidagi bir-birini oshkora xush ko'rmaslik, nodo'stona luqma tashlash holatlari janjalli vaziyatlarning keskinlashuvigacha olib kelgan..." degan gaplarini bejiz keltirmagandim.

Aslida vaziyat shunday edi. Hatto siyosiy elitalar o'rtasidagi sovuqchilik sabab ikki qo'shni mamlakat o'rtasida bir necha yillar diplomatik aloqalar ham muzlab qolgani bor gap. (Masalan, O'zbekiston bir muddat, ya'ni 2010-yildan 2013-yilgacha Qirg'izistonga o'z elchisini tayinlamagan bo'lsa, Qirg'izistonning Toshkentdagi elchisi o'rni ham 2010-2011-yillarda bo'sh turgan.) Ayni shu hodisalar va Sadir Japarovning bugungi kunlarimizda "VVS"ga bergan intervyusidagi O'zbekiston va uning Prezidenti haqidagi mulohazalari



qardosh xalqlar va qo'shni davlatlar orasidagi munosabat qisqa muddatda qanday o'zgarib ketganini ifodalash uchun yaxshi misol bo'la oladi, deb o'ylayman.

Shu o'rinda meni bir narsa haddan ortiq quvontiradiki, ardoqli adibimiz Chingiz Aytmatov qalbini chulg'agan o'zaro do'stlik, qardoshlik va og'achilikka bo'lgan muhabbat o'ti bugun xalqlarimiz, ellarimiz dillarida qayta alanganmoqda.

Muhimi, bu ishlarda barcha-barchamizga davlatlarimiz rahbarlari Shavkat Mirziyoyev va Sadir Japarov o'rnak bo'lmoqda.

Qudratilla RAFIQOV,
siyosatshunos.

"Ishonch" gazetasining 2025-yil 12-iyuldagi 86-sonidan olindi.

Anqarada O'zbekiston elchixonasi va Turkiya Tashqi iqtisodiy aloqalar bo'yicha kengashi (DEIK) "Turkiya – O'zbekiston" qo'mitasi hamkorligida davra suhbat tashkil etildi.

Senator va hayot

Uychi tumanida ochiq muloqot

Oliy Majlis Senati aʼzolarining hududlarda aholining yashash tarzi, qiziqish va muammolarini oʻrganish borasidagi ishlari davom etmoqda.

Xususan, Senatning Xalqaro munosabatlar, tashqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investitsiyalar va turizm masalalari qoʻmitasi raisi oʻrinbosari Odiljon Mamatkarimov Namangan viloyatiga xizmat safari davomida Uychi tumanida ochiq muloqot va sayyor qabul oʻtkazib, aholi murojaatlarini koʻrib chiqdi.

Oʻz navbatida, senator aholi murojaatlari boʻyicha tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikda amaliy choralar

koʻrdi va ayrim masalalar joyida hal qilindi.

Shuningdek, 2025-yilning birinchi yarim yilligida amalga oshirilgan ishlar boʻyicha senatorning hisobot uchrashuvi tashkil etildi. Uchrashuvda hisobot davrida qabul qilingan qonunchilik tashabbuslari, hududlarda amalga oshirilgan faoliyat va aholi murojaatlarini koʻrib chiqish jarayoni yuzasidan batafsil axborot berildi.

“Xalq soʻzi”.

Uchrashuv

IJTIMOIY LOYIHALAR HAYOTGA TATBIQ ETILADI

Oliy Majlis Senatining Yoshlar, xotin-qizlar, madaniyat va sport masalalari qoʻmitasi raisi Orzigul Qozixonova Fargʻona viloyatining Margʻilon shahrida Yoshlar parlamenti vakillari hamda siyosiy partiyalarning faol yoshlari bilan uchrashuv oʻtkazdi.

Ochiq muloqotda asosiy eʼtibor yoshlar bilan tizimli ishlash, ularning muammolarini oʻrganish hamda tashabbuslarini qoʻllab-quvvatlashga qaratildi.

Uchrashuv ishtirokchilari oʻzlarini qiziqitirgan savollar bilan senatorga murojaat qildi. Bundan tashqari, yoshlar taʼlim sifati, bandlik, tadbirkorlikni qoʻllab-quvvatlash, ijtimoiy faollikni oshirish, madaniy-

maʼrifiy loyihalarda qatnashish hamda axborot makonidagi tahdidlarga qarshi maʼnaviy immunitetni kuchaytirish kabi masalalar yuzasidan oʻz fikr va takliflarini bildirdi.

Yakunda Yoshlar parlamenti va siyosiy partiyalarning faol aʼzolari bilan hamkorlikda ijtimoiy loyihalarni amalga oshirish boʻyicha kelishib olindi.

“Xalq soʻzi”.

XALQNING HAQIQIY “OVOZI”GA AYLANAYOTGAN MAHALLIY KENGASHLAR

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 2-fevralda imzolangan “Mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatining samaradorligini oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi Farmoni tom maʼnoda tarixiylik kasb etdi. Ushbu hujjat bilan “Kuchli Kengash – hisobdor va tashabbuskor hokim” tamoyili asosida mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatini qayta tashkil qilishga qaratilgan yangi modelning huquqiy poydevori shakllandi.

Jarayon

Bu asosda 33 ta muhim vakolat joylardagi xalq vakillariga – mahalliy Kengashlarga oʻtkazildi. Ushbu vakolatlar jamiyat va davlat hayotining hal qiluvchi masalalari boʻyicha bevosita xalqning irodasini ifoda etuvchi organlar salohiyatini tubdan kuchaytiradi.

Davlatimiz rahbarining tashabbusi va gʻoyalari asosida qabul qilingan Harakatlar strategiyasi, Taraqqiyot strategiyasi va “Oʻzbekiston – 2030” strategiyasi asosida mamlakatimizning demokratik qiyofasi oʻzgardi. Iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy yangilanishlar yuz bermoqda.

Xususan, soʻnggi yillarda xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish boʻyicha keng qamrovli oʻzgarishlar amalga oshirilib, mahalliy Kengashlarning hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholini ijtimoiy himoya qilishga oid dolzarb masalalarni hal etish boʻyicha vakolatlari kengaytirildi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya ruhi mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlariga nisbatan munosabatni tubdan oʻzgartirdi. Endilikda ularning faoliyatini qoʻllab-quvvatlash – Senatning mutlaq vakolati sifatida belgilandi. Senat tarkibida Mahalliy hokimiyat vakillik organlari faoliyatini kuchaytirishga koʻmaklashuvchi komissiya

va Hududiy vakillik organlari faoliyatini oʻrganish markazi tashkil etildi. Bu esa Kengashlar oʻz hududida oʻzini yolgʻiz emas, balki Senat bilan yelkadosh deb his qilishi uchun zamin yaratdi.

Endilikda mahalliy Kengashlar – haqiqiy xalq vakili, Senat esa ularning strategik tayanchi sifatida faoliyat yuritmoqda.

Oʻz navbatida, Oliy Majlis Senati ham bu jarayonda faol ishtirok etib, mahalliy va Kengashlar faoliyatini mustahkamlash maqsadida 20 dan ortiq qarorlar qabul qildi, 700 dan oshiq qonunchilik hujjatlari qayta koʻrib chiqildi va 300 dan ziyod funksiyalar maqbullashtirildi. Shu bilan birga, “E-Kengash” axborot tizimi joriy etildi va bu mahalliy vakillik organlari bilan fuqarolar oʻrtasida ochiqlik hamda elektron muloqot imkonini yaratdi.

Albatta, amalga oshirilgan ishlardan koʻra bajarilishi kerak boʻlgan yumushlar koʻproq. Xususan, Kengash maqomining huquqiy jihatdan aniq belgilanmagani hokimiyatlar boʻlinishi tamoyilini toʻliq namoyon etishga toʻsqinlik qilmoqda.

Shu bilan birga, mahalliy Kengashlar faoliyati samaradorligini oshirish uchun Senat bilan oʻzaro hamkorlikni yanada takomillashtirish, hududiy muammolarni Senat orqali Hukumat darajasiga yetkazish

va ularni tizimli ravishda hal etish mexanizmini takomillashtirishga ham zarurat sezilmoqda. Bundan tashqari, mahalliy Kengash deputatlarining faoliyatini samarali tashkil qilish uchun tegishli kafolatlar, ijtimoiy himoya, malaka oshirish va tajriba almashish tizimi, shuningdek, moddiy-texnik baza va kadrlar salohiyatini mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlarga ehtiyoj yuqori boʻlib qolyapti.

Yuqorida tilga olingan mahalliy Kengashlar faoliyatini kuchaytirish zarurati bir qancha jarayonlarni talab qiladi. Jumladan, Kengashlarning nazorat salohiyatini kuchaytirish maqsadida “Kengash soati” instituti joriy etiladi. U orqali ijro organlari rahbarlari muhim ijtimoiy masalalar yuzasidan deputatlar va jamoatchilik oldida axborot beradi. Shuningdek, hokim oʻrinbosarlari lavozimiga nomzodlar Kengash doimiy komissiyalari xulosasiga asosan muhokama qilinib, oʻz yoʻnalishi boʻyicha hududiy rivojlanish dasturini taqdim etishi shart boʻladi.

Ayni chogʻda mahalliy byudjet mablagʻlarining qanday va qayerga sarflanayotgani toʻgʻrisida sarflovchilikka toʻliq va shaffof axborot berilishi taʼminlanadi. Bu esa mahalliy byudjetni shakllantirish jarayoniga deputatlarni jalb etish, ularning tashabbuslarini qoʻllab-quvvatlash orqali aholining turmush farovonligiga yoʻnaltirilgan qarorlar qabul qilinishiga zamin yaratadi. Eng muhimi, aholi muammolari va hudud manfaatlarini joyida hal qilish, ularni respublika darajasiga yetkazib, tizimli yechim topishni taʼminlash maqsadida “mahalla yetitilgi – tuman/shahar Kengashi

– viloyat Kengashi – Senat” tamoyili asosida yangi formatdagi yondashuv joriy etilishi rejalashtirilmoqda.

Bu joylardagi real muammolarni davlat miqyosida eshitish va yechim topishga xizmat qiluvchi barqaror, izchil va samarali tizimni shakllantirishda muhim qadam boʻladi.

Albatta, bularning bari oʻz-oʻzidan amalga oshadigan jarayonlar emas. Buning uchun zimmalariga katta masʼuliyat yuklanayotgan mahalliy deputatlar ham “qadamlardan oʻt chaqnaydigan” boʻlishi lozim. Shu maqsadda, deputat faoliyatining kafolatlarini buzganlik uchun maʼmuriy javobgarlikni kuchaytirish, ularning asosiy ish joyidagi huquqlarini himoya etish, Kengash yigʻilishlarida qatnashishga toʻsqinlik qilmaslikni aniq tartibda belgilash zarur. Shuningdek, deputatning hududdagi davlat tashkilotlariga moneliksiz kirishi, sessiya va komissiyalarda erkin ishtirok etishi, saylovchilar bilan doimiy muloqotda boʻlishi uchun huquqiy shart-sharoitlar yaratish ham bunda asosiy omil sanaladi.

Eng muhimi, deputatlar faoliyatida manfaatlar toʻqnashuvining oldini olish, axloqiy standartlarni mustahkamlash, mavjud qonun normalarining

Bunda har bir deputatning javobgarligi, har bir qarorning xalq manfaatiga kamarbasta boʻlishi, har bir tashabbusning hayotga yaqinligi eng ustuvor mezon boʻlib qolmoqchi lozim. Chunki mahalliy Kengashlar endi faqat qaror qabul qiluvchi emas, balki xalqning dardi eshitiladigan, muammosi yechiladigan, taklifi eʼtiborga olinadigan eng yaqin, taʼsirchan va ochiq inoborga aylanishi zarur. Zero, yangi Oʻzbekistonda barcha ishloqlarning markazida bitta buyuk gʻoya turibdi, bu – inson qadriini yuksaltirish gʻoyasi.

Ixtiyor BEKOV,
TDYUU professori, yuridik fanlar doktori,
Alisher NAZAROV,

Oliy Majlis Senatining Hududiy vakillik organlari faoliyatini oʻrganish markazi boʻlim mudiri.

TAʼLIM-TARBIYA USTUVORLIGI VA HUQUQIY NORMALAR KAFOLATI



“Milliy tiklanish” demokratik partiyasi fraksiyasi yigʻilishida

“Oʻzbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga nodavlat taʼlim xizmatlarini koʻrsatish sohasini takomillashtirishga qaratilgan oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritish toʻgʻrisida”gi qonun loyihasi muhokama qilindi.

Aytilganidek, mazkur qonun loyihasi taʼlim sohasidagi huquqiy boʻshliqlarni bartaraf etish va katta yoshdagilarning taʼlim olish huquqini mustahkamlash maqsadida ishlab chiqilgan.


Bugungi kunda maktabdan tashqari taʼlimning huquqiy tushunchasi bunday taʼlim shaklida oʻquv markazlari katta yoshdagi fuqarolarga chet tillarini oʻrgatish mumkin yoki mumkin emasligi yuzasidan savollarni

faoliyatiga har qanday aralashuvlarning oldini olishga qaratilgan.

Yigʻilishda qonun loyihasidagi normalar atroflicha koʻrib chiqildi. Xususan, deputat Z. Mavlonov qonun loyihasidagi ayrim normalar boʻyicha aniqlashtiruvchi savollar berdi. Mutasaddilar koʻtarilgan savollar yuzasidan batafsil tushuntirish berdi.

Savol-javoblardan soʻng qonun loyihasi deputatlar tomonidan qoʻllab-quvvatlandi.

Oʻzbekiston Xalq demokratik partiyasi fraksiyasi yigʻilishida “Dala chetlarida qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini yetishtirish tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan Oʻzbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qoʻshimcha va oʻzgartirishlar



tugʻdirmoqda. Amaliyotda katta yoshdagi fuqarolarga chet tillari kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash faoliyati doirasida oʻrgatilmogʻda. Biroq “Taʼlim toʻgʻrisida”gi Qonunning 13-moddasiga koʻra, kadrlarni qayta tayyorlash tayanch mutaxassisliklar va kasblarga muvofiq boʻlgan yoʻnalishlar boʻyicha faoliyatini amalga oshirish uchun qoʻshimcha kasbiy bilim, malaka va koʻnikmalarning zarur hajmi egallanishini taʼminlaydi. Kadrlar malakasini oshirish esa kasbiy bilim, malaka va koʻnikmalarning chuqurlashtirilishi hamda yangilab borilishiga yoʻl ochadi, kadrlarning toifasi, darajasi, razryadi va lavozimi oshirishga xizmat qiladi. Qonunchilikdagi mazkur boʻshliqlar qonun talablari sunʼiy ravishda buzilishini keltirib chiqarmoqda.

kiritish toʻgʻrisida”gi qonun loyihasi koʻrib chiqildi.

Mazkur qonun loyihasiga birinchi oʻqishda fraksiya aʼzolari eʼtiroz bildirgan edi. Shularni hisobga olib, loyiha ijodkorlari uni ikkinchi oʻqishga tayyorlash jarayonida bir qator oʻzgartirishlar kiritgani taʼkidlandi. Jumladan, qishloq xoʻjaligiga moʻljallangan yer uchastkalarining dala chetlaridagi kanallar, sugʻorish va kollektor-drenaj tarmoqlari atrofidagi qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini yetishtirish belgilangan maydonlarida har yili 1-mayga qadar ekin ekilmagan taqdirda mazkur yer uchastkasining ekin ekilmagan qismi uchun yer soligʻi stavkasi uch baravar miqdorda oshirilgan holda hisoblanishi belgilab qoʻyilmoqda. Vaholanki, birinchi oʻqishga kirgan tahrirda muddat 1-aprelgacha, yer soligʻi esa yerning ekin ekilmagan qismi uchun emas, balki butun qishloq xoʻjaligiga moʻljallangan yerlari uchun uch baravar soliqqa tortish koʻzda tutilgan edi.

Muhokama uzoq davom etdi. Fraksiya aʼzolari ikkinchi oʻqishgacha kiritilgan oʻzgartirishlar yetarli emas, degan fikr bildirishdi. Qonun loyihasining amaldagi muhim meʼyoriy hujjatlariga zid jihatlari hali ham borligi aytili. Yakunda fraksiya aʼzolarining koʻpchiligi qonun loyihasini maʼqullamay ovoz berdi.

Oʻzbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi yigʻilishida tadbirkorlik subyektlarini qoʻllab-quvvatlash orqali aholi bandligini taʼminlash hamda yuqori qoʻshilgan qiymatli tovarlar ishlab chiqarishni kengaytirishga qaratilgan qonun loyihasi koʻrib chiqildi.

Qonun loyihasi bilan amaldagi 2 ta kodeks hamda 3 ta qonunga moʻljallik faoliyatini amalga oshirmayotgan tadbirkorlik subyektlarini tugatish tartibini soddalashtirish, yuqori texnologiyalar asosida ishlab chiqarishni rivojlantirish, yaylov xoʻjaliklarining moliyaviy ahvolini yaxshilash, oʻzini oʻzi band qilgan shaxslarni soliqqa tortishga oid qonun hujjatlaridagi nomuvofiqlik holatlarini bartaraf etish, yengil sanoat va xizmatlar sohasini, ipoteka bozori hamda farmatsevtika mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar va kreativ parking rezidentlarini qoʻllab-quvvatlashga qaratilgan soliq imtiyozlarini taqdim etishni nazarda tutuvchi oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritilmoqda.

Yigʻilishda qonun loyihasi bilan tovarlarni xalqaro tashishni tashkil etishda koʻrsatilgan transport-ekspeditirlik xizmatlariga nisbatan qoʻshilgan qiymat soligʻining nol stavkasini qoʻllash, dorivor oʻsimliklarni yetishtirish va qayta ishlash kooperativlari xodimlari uchun ijtimoiy soliq hamda daromad soligʻi stavkasining 1 foiz miqdorida belgilanishi mazkur soha rivoji uchun katta turtki boʻlishi taʼkidlandi.

Fraksiya aʼzosi N. Yusupovning fikricha, qonun loyihasida nazarda tutilgan normalar tadbirkorlikni rivojlantirish, raqobatni kuchaytirish, aholi bandligini taʼminlash hamda soliq tizimidagi adolatli yondashuvni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Qonun loyihasi fraksiya aʼzolari tomonidan atroflicha koʻrib chiqilib, qoʻllab-quvvatlandi.

“Xalq soʻzi”.

Mamlakatimiz mustaqilligining 34 yilligiga

Milliy birdamlik va taraqqiyot asosi

Oʻzbekiston mustaqillik yillarida erkin va suveren taraqqiyot yoʻliga chiqdi, milliy manfaatlar ustuvor boʻlgan mustaqil davlat sifatida shakllandi. Istiqloq xalqning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy hayotini tubdan oʻzgartirdi. Eng muhimi, fuqarolar taqdiriga daxldor qarorlarni qabul qilish, ichki islohotlarni amalga oshirish va tashqi siyosatni yuritish borasida toʻliq mustaqillikka erga boʻldi.

10-iyul kuni Mustaqillikning 34 yilligiga tayyorgarlik koʻrish boʻyicha Prezident qarori qabul qilindi. Unga koʻra, bayram tadbirlari “Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!” shiori ostida oʻtkazilishi belgilandi. Bu gʻoya mamlakatda davlat va jamiyat hamjihatligini mustahkamlashga, millatning tarixiy ongi va istiqloq qadriyatini yuksaltirishga xizmat qilishi, shubhasiz.

Qaror bilan xalqimizning maʼnaviy dunyosi, vatanparvarlik va milliy ifitxor tuygʻularini aks ettiradigan “Ona diyor – ranglar jilosisida”, “Vatan uchun yashaylik!”, “Eng ulugʻ, eng aziz” kabi koʻrik-tanlovlar, madaniy-maʼrifiy tadbirlarni oʻtkazish ham belgilangan boʻlib, bu tadbirlar bayramni keng

nishonlash bilan ergalikda, odamlarga mustaqillikning qadriga yetish va uni asrab-avaylashda barcha birdek masʼul ekanligini anglatishda muhim oʻrin tutadi.

Bayram arafasida Qoraqalpogʻiston Respublikasi, viloyatlar, shahar va tumanlarda oʻtkaziladigan maʼnaviy-maʼrifiy tadbirlar, ilmiy anjumanlar, adabiy-badiiy kechalar, milliy kino kunlari va sport musobaqalarida odamlar faol ishtirok etib, bu kunni xursandchilik bilan oʻtkazish anʼanaga aylanib ulgurdi.

Istiqloq – bebaho neʼmat. Uni koʻz qorachigʻiday asrash, ayniqsa, bugungi global xatarlar, geosiyosiy beqarorlik va geoiqtisodiy xavflar, etarga nima yuz berishini aytib boʻlmaydigan davrda juda muhim. Bunday sharoitda

mustaqillik nafaqat baxt, balki katta masʼuliyatdir.

Shu bois har bir fuqaro oʻzini mamlakat taqdiriga daxldor, deb his etishi, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega boʻlishi talab qilinadi. Bu mustaqillikni asrab-avaylash va uni kelajak avlodlarga munosib tarzda yetkazishning yagona kafolatidir.

Shunday ekan, bu jarayonda xalqimiz, aholimizning munosabati qanday boʻlishi kerak?

Fikrimcha, avvalo, har bir inson oʻzini Vatan, istiqloq va millat taraqqiyoti uchun javobgar deb his qilishi, daxldorlik tuygʻusi yanada kuchli boʻlishi lozim. Shuningdek, mustaqillikning qadriini anglash va unga munosib hayot kechirish, yosh avlod qalbidagi milliy faxr va vatanparvarlik tuygʻularini mustahkamlash choralariga eʼtiborni kuchaytirish kerak. Ayniqsa, yoshlarni yangi Oʻzbekiston bunyodkorlari sifatida tarbiyalash, ularga zamonaviy bilim va texnologiyalarni oʻrgatish, ularni qoʻllab-quvvatlashga qaratilgan vazifalar

sobitqadamlik bilan amalga oshirib borilishi muhim sanaladi.

Bu yoʻlda barcha darajadagi institutsional tuzilmalar – oila, mahalla, taʼlim muassasalari, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari, parlament – barcha-barchasi hamjihatlikda ish olib borishi zarur. Zero, Istiqloq gʻoyasi xalqimizni birlashtiruvchi mayoq, hech kim yana qaytdan istibod boʻyinturugʻi boʻyniga osilishini istamaydi.

Oʻzbekiston bugun katta yoʻlga chiqqan va ortga qaytmaydi, oʻz tanlagan yoʻlida yanada kuchli va mustahkam boʻlib, taraqqiyot sari dadil ildamlamoqda. Bu yoʻlda barqaror taraqqiyot va global raqobatda munosib oʻrin egallashga intilayotgan davlatga aylandi. Buning uchun esa xalqning yakdilligi, faol ishtiroki va kelajakka boʻlgan ishonchi asosiy omil hisoblanadi.

Azamat PARDAYEV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.

Gansu muzofotining Lanjou shahrida boʻlib oʻtgan 31-Xitoy investitsiya va savdo yarmarkasida Oʻzbekiston milliy mahsulotlari namoyish qilindi.

ISLOHOTLARNI JOYLARDA SAMARALI AMALGA OSHIRISH – PIROVARD MAQSAD

Inson qadrini ulug'lash, uning huquq va manfaatlarini ta'minlash orqali odamlarni hayotdan rozi qilish – yangi O'zbekistonda Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida olib borilayotgan islohotlarning bosh maqsadiga aylangan.

Darhaqiqat, bugun mamlakatimizda ro'yobga chiqarilayotgan beqiyos o'zgarishlar odamlar turmush sharoitida chuqur aks etmoqda. Barpo qilinayotgan yangi massivlar, ijtimoiy obyektlar, yaratilayotgan infratuzilma inshootlari, yirik loyihalar tatbiq etilayotgan korxonalar aholi turmush tarzini tubdan o'zgartiryapti, ularning davlat islohotlariga bo'lgan ishonchi tobora kuchaymoqda.

Ushbu o'zgarishlarni davom ettirish va bu borada davlat organlarining samaradorligini oshirish masalasi doimo e'tiborda bo'lib kelgan. Yaqinda davlatimiz rahbari raisligida islohotlar natijadorligi, hududlarda ishlarning borishi va aholini qiynayotgan masalalar tahlili bo'yicha o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida dolzarb vazifalar ko'rib chiqilgani, muhim tashabbuslar ilgari surilgani bejiz emas.

Binobarin, mamlakatimizda shu yilning 5 oyi davomida ijtimoiy-iqtisodiy sohada sezilarli natijalarga erishilgani qayd etildi. Jumladan, sanoat 6,4 foiz, eksport miqdori 18 foiz, xorijiy investitsiyalar jalb qilish 46 foizga oshgan. Qiymati 3 mlrd. dollarlik 2,5 mingdan ziyod yangi quvvatlar ishga tushgan, 2 mln. 400 ming aholimiz daromadli bo'lgan.

Biroq hozirgi tahlikali zamonda dunyoda turli mojarolar avj olib, savdo aloqalari va logistika qiyinlashyapti. Ushbu vaziyatda tinchlikni qadrlash, adolatni ta'minlash va inson qadrini ulug'lash masalalari dolzarb bo'lib bormoqda.

Yig'ilishda aholining dardu tashvishlarini eshitib, odamlarga sharoit yaratib berish rahbarlarning asosiy vazifasi ekani, hokimlar va vazirlar o'z imkoniyatlarini to'g'ri baholashi, tashabbus ko'rsatib ishlashi, aholi va biznes vakillari bilan muloqotni yanada kuchaytirib, muammolarni tez-tez hal qilib borishi zarurligi ko'rsatildi.

Hududlardagi islohotlar natijadorligi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning muhim mezonini sifatida belgilandi. Tuman bo'g'ini samarali ishlamas, ko'zlangan maqsadlarga erishib bo'lmisligi ta'kidlandi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi o'z faoliyatida hududlardagi vaziyat bilan yaqindan tanishish, aholini tashvishlantirayotgan masalalarni o'rganishga alohida e'tibor qaratib kelmoqda.

Ayonki, rejaga muvofiq deputatlar har oy hududlarda borib, saylovchilar bilan muloqot qiladi. Bu gal ham deputatlar joylarda bo'lib o'ziga binkirilgan, o'zi saylangan hududda islohotlarning bajarilishi sur'ati bilan tanishdi.

Xususan, Toshkent viloyatida ham aholi bilan navbatdagi uchrashuvlar tashkil etildi.

Oxirgi yillarda viloyatni "o'sish nuqtalari"ga tayangan holda iqtisodiy rivojlantirish, aholiga munosib turmush sharoitlarini yaratishga qaratilgan keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Chinoz tumani misolida aytadigan bo'lsak, qabul qilingan alohida dasturlar asosida mazkur hududda aholi bandligini ta'minlash, sanoat va xizmat ko'rsatish sohalarini rivojlantirish, yo'l-transport infratuzilmasi va muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini yaxshilash, ijtimoiy soha obyektlarini ta'mirlash va boshqa yo'nalishtar bo'yicha idora, tashkilotlar faoliyati tashkil etilganini aytilish o'rinni. Masalan, joriy yilning 6 oyi

Tumandagi uchrashuvlar davomida xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar, Korruptsiyaga qarshi kurashish va xavfsizlik hamda Ijtimoiy soha, yoshlar siyosati, madaniyat va sport masalalari bo'yicha doimiy komissiyalari qo'shma majlisida ishtirok etdik.

Majlisda deputatlar tumanda bandlikni ta'minlash, kambag'allikni qisqartirish, investitsiyalarni jalb qilish, xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, aholiga sifatli tibbiy xizmatlarni ko'rsatish, tashabbusli byudjet jarayonida g'olib bo'lgan loyihalarni o'z vaqtida amalga oshirish masalalari bo'yicha hokim o'rinbosarlari, mas'ul idoralar rahbarlariga savollar berildi va ushbu sohalarda belgilangan ishlarni o'z vaqtida bajarish, zarur hollarda tashabbus ko'rsatish kerakligi ta'kidlandi.

Aholini tashvishga solayotgan muammolarni tahlil qilish va ularni yechishga alohida e'tibor qaratildi. Tuman tibbiyot

qaratilgan ishlarni tashkil qilgan. Daromadi mavjud bo'lmagan shaxslarni ish bilan ta'minlash, tazyiq va zo'ravonlikka uchrayotgan ayollarning samarali himoyasini ta'minlash, huquqbuzarlik sodir etishga moyilligi bor yoshlar bilan manzilli ishlash kabi ijtimoiy profilaktika choralari profilaktika inspektorlari va boshqa "mahalla yetiligi" a'zolari o'rtasidagi hamkorlik orqali amalga oshirilmoqda.

"E-ijtimoiy profilaktika" axborot tizimida ijtimoiy profilaktika tadbirlarini amalga oshirish bo'yicha "mahalla yetiligi" orasida xulosalar shakllantirilmoqda va ijroga qaratilmoqda, har bir xulosa ijrosi ustidan kunlik idoraviy nazorat mexanizmlari joriy etilgan.

Tumanda jinoyatchilikning profilaktikasiga oid boshqa choralar ham ko'rilmogda. Xususan, kuzatuv videokameralarni va "tashvish tugmalar"ni o'rnatish, "xavfsiz ko'cha" va "xavfsiz yo'lak"larni ko'paytirish bo'yicha mas'ullar birlashtirilib, ishlar amalga oshirilmoqda.

O'rganishlar ushbu sohada ishga solinmagan imkoniyatlar borligini ko'rsatdi. "Mahalla yetiligi" tomonidan ijtimoiy profilaktika ishlarining manzilligini oshirish, ushbu ishlarga mahalladagi nuroniy va faollarni jalb etish, profilaktika inspektorlari tomonidan jinoyatchilikka oid mahallaning tahlilini to'g'ri tashkil qilish borasida tavsiyalar berildi.

Ichki ishlar organlari va hokimiyat vakillari jamoat joylarini raqamlashtirish qamrovini oshirishda "mahalla yetiligi" salohiyatidan unumli foydalanish, kriminogen vaziyati og'ir hududlarda doimiy tarzda yangi uslublarni ishlab chiqishni o'ziga vazifa sifatida belgilab olgan.

Albatta, bu borada davlat rahbari huzurida 8-iyul kuni mahallada jinoyatchilikni jilovlashga oid o'tkazilgan taqdimotda "butun tizimni pastga tushirib, har bir mahallani "jinoyatchilikdan xoli hudud"ga aylantirish" bo'yicha belgilangan vazifa har bir mahalla uchun ustuvor maqsad bo'lib xizmat qiladi.

Eng muhimi, belgilab berilgan topshiriqlar, shubhasiz, islohotlarning samaradorligini oshiradi hamda har bir davlat tashkiloti vakilini, o'z navbatida, deputatlarni ham har qachongidek ko'proq intizom va reja bilan ishlashga chorlaydi.

Ulug'bek ShERMATOV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasining
Xalqaro ishlar, mudofaa va xavfsizlik
masalalari qo'mitasi raisi.

VODIYLARNI YAYOV KEZGANDA...

Shu kunlarda Farg'ona viloyatida sentyabr oyida bo'lib o'tadigan xalqaro anjumanlarga qizg'in taraddud ko'rilmogda. Gap shundaki, 19 – 21-sentyabr kunlari Qo'qon shahrida III xalqaro hunarmandchilik festivali hamda unga hamohang Rishton tumanida II xalqaro kuloichilik forumi bo'lib o'tadi.

Farg'ona nufuzli xalqaro anjumanlar arafasida

– Ushbu festival va forum doirasida qator madaniy-ma'rifiy tadbirlar ko'zda tutilgan, – deydi Farg'ona viloyati hokimi o'rinbosari Xurshidjon Ahmedov. – Xususan, festival qatnashchilari uchun mahalliy va xorijiy hunarmandlar mahsulotlarining ko'rgazma-savdolari tashkil etiladi. O'z navbatida ilmiy konferensiyalar, modalar namoyishi, xalq sayillari, dorbozlik tomoshalari, folklor jamoalarining konsert dasturlari, pazandachilik tanlovlarini o'tkazish ham rejalashtirilgan.

Anjuman mehmonlari uchun Qo'qon shahri va Rishton tumanining madaniy-ko'ngilochar maskanlari hamda turistik yo'nalishlari bo'ylab sayohatlar uyushtiriladi.

Yurtimiz qovunlari Shvetsiyada ham xaridorgir

Farg'ona viloyatida yetishtirilgan meva-sabzavotlar va quritilgan mevalarni jahon bozoriga eksport qilish ko'lami tobora kengayib bormoqda.

"Fergana Exim Agro" mas'uliyati cheklangan jamiyati tomonidan yaqinda Shvetsiyaga "Torpeda" va "Obi novvot" navli qovunlar yetkazib berildi. E'tiborlisi, mamlakat poytaxti Stokgolm shahrida bu qovunlar xaridorlarga juda manzur bo'lib, qo'shimcha yana 20 tonna buyurtma qilindi.

MCHJ rahbari Yorqinjon Inomovning aytishicha, Shvetsiya bozori yaqin istiqbolda yurtimiz sohibkorlari uchun muvaffaqiyatli yo'nalishga aylanishi aniq. Bu bilan o'zbek qovunini Yevropa qit'asida keng ommalashtirish imkoni ham yaratiladi.



"Yashil" texnologiya tamoyiliga mos texnikalar

"O'zagrolizing" aksiyadorlik jamiyatining Farg'ona viloyati filialida yangi paxta terish mashinalarini yig'ishga kirishildi. Belgilangan reja asosida Xitoydan 300 ta ana shunday mashina qismlari olib kelinadi. Mahalliy sharoitda bugungi kunga qadar ularning 100 ga yaqini to'liq yig'ilib, tayyor holga keltirildi.



Zamonaviy texnikalar yonilgi tejankor, paxtani esa toza va sifatli teradi hamda boshqa foydali xususiyatlari bilan "yashil" texnologiyalar tamoyiliga mos keladi.

– Malakali kadrlar tayyorlash maqsadida o'quv mashg'ulotlari ham yo'lga qo'yildi, – deydi Farg'ona viloyati hokimi o'rinbosari Alibek Tursunov. – Ayni jarayonda ishtirokchilarning ushbu texnikadan foydalanish bo'yicha nazariy hamda amaliy bilimlari oshirilayotir. O'quv kursini muvaffaqiyatli yakunlagan mutaxassislar bunday paxta terish mashinalarini boshqarish huquqiga ega bo'ladi.

"Qo'qon" EIZda metall panelli radiatorlar ishlab chiqariladi

Uchko'prik tumanidagi "Qo'qon" erkin iqtisodiy zonasi hududida "Thermo Tech" mas'uliyati cheklangan jamiyati tomonidan metall panelli radiatorlar ishlab chiqarish loyihasi amalga oshirildi.

Loyihaning umumiy qiymati 30 mln. dollar bo'lib, bu yiliga 900 ming dona panelli radiator ishlab chiqarish imkonini beradi. Shu maqsadda Italiya va Turkiyadagi zamonaviy texnologiyalar olib kelib o'rnatildi hamda 300 ta yangi ish o'ri yaratildi.

– Istiqbolli loyihani amalga oshirish uchun 5 mln. dollar hajmida o'z mablag'imiz va 25 mln. dollar xorijiy investitsiya jalb etildi, – deydi tadbirkor Ziyoviddin Yursunov. – Dastlabki bosqichda yiliga 600 mlrd. so'mlik mahsulot ishlab chiqarish rejalashtirilgan. Yo'l-yo'lakay ishlab chiqarish hajmi va eksport ko'lamini oshirib borishni maqsad qilganmiz.



Botir MADIYOROV
("Xalq so'zi").

E'tirof

Shakarjon Xo'janiozova nomidagi tanlov g'oliblari aniqlandi

Davlatimiz rahbari joriy yilning 1-2-may kunlari Xorazm viloyatiga tashrifi chog'ida ko'p yillar davomida el-yurt uchun fidokorona xizmat qilgan davlat va jamoat arbobi Shakarjon Xo'janiozova tavalludining 70 yilligini keng nishonlash, xotirasini abadiylashtirish hamda viloyatdagi faol xotin-qizlar o'rtasida Shakarjon Xo'janiozova nomidagi tanlov o'tkazish bo'yicha topshiriq bergan edi.



Urganch shahrida mazkur tanlovning final bosqichi o'tkazildi. Xotin-qizlarning salohiyatini ro'yobga chiqarish, ularning jamiyat hayotida faolligini oshirish, rahbarlik fazilatlarini rag'batlantirishga qaratilgan tanlovda turli sohalarda faoliyat yuritayotgan tashabbuskor opa-singillarimiz ishtirok etdi.

Hakamlar hay'ati qaroriga ko'ra tanlovning yakuniy bosqichida Bonu O'tkirova birinchi o'rinni, Shahnoza Qalandarova ikkinchi o'rinni, Quvonch Sherjonova uchinchi o'rinni egalladi. Tanlov g'oliblariga diplom va esdalik sovg'alari topshirildi.

Nizomga muvofiq ushbu tanlov bundan buyon an'anaviy tarzda o'tkazib boriladi.

Odilbek ODAMBOYEV
("Xalq so'zi").

TABIATNI ASRASH – TIRIKLIKNI ASRASH DEMAK

Iqlim o'zgarishlari, haroratning keskin o'tarilishi hamda suv tanqisligi – global masala. Bugungi kunda bu muammo mamlakatimiz hududida joylashgan ko'p yillik daraxtlar holatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Zero, yozgi havo harorati odatdagidan ancha yuqori bo'lishi, global iqlim o'zgarishi bilan emas, balki mahalliy ekologik muammolar, xususan, daraxtlar sonining kamayib borayotgani va mavjud yashil hududlarning qarovsiz qolayotgani bilan ham chambarchas bog'liq.

Fikr

Afsuski, so'nggi paytlarda ayrim mahallalarda, istirohat bog'larida hamda yo'l yoqalari bo'ylab ekilgan va mavjud daraxtlar qurib qolayotgani yoki kesib tashlanayotganining guvohi bo'lyapmiz. Bu bilan go'yo daraxtlar haroratni mo'tadillashtiruvchi eng samarali va arzon vosita ekanini unutib qo'ygandekmiz. Ular havoni nafaqat kislorod bilan boyitadi, balki o'zining soyasi, barglari bilan atrofdagi haroratni bir necha darajaga pasaytiradi.

Binobarin, daraxtlar – nafaqat tabiat go'zalligi, balki havoning tozaligi, soya-salqinlik, ekologik muvozanat va inson salomatligi uchun ham muhim manba. Ularga beparvolik bilan munosabatda bo'lish esa kelajak

avlodga qoldiriladigan tabiiy merosga putur yetkazadi.

2025-yil – Atrof-muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot yili ushbu masalani chuqurroq davlat siyosati darajasiga ko'tarish uchun muhim asos bo'lmoqda. Issiq yozlar, chang-to'zonli ko'chalar, havo yetarlicha aylanishiga to'sqinlik qiluvchi beton infratuzilma bularning barchasi, aslida birgina muammoning oqibatidir: daraxtlar kam, borlari esa talab darajasida sug'orilmayapti.

Daraxtlarni tizimli sug'orish rejalarini yo'qligi, ayniqsa, yoz mavsumida ularni qurib qolishdan asrash bo'yicha choralar tizimli amalga oshirilmayotgani ekologik muammolarga sabab bo'lmoqda. Shu bois hududiy ekologiya, obodonlashtirish va suv ta'minoti xizmatlari o'rtasida muvofiqlashtirilgan harakatlarni yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq. Zero,

davlat yoki jamoat mulki hisoblangan daraxtlarni parvarish qilish har birimizdan yuksak ekologik madaniyat va fuqarolik mas'uliyatini talab qiladi.

Shu o'rinda faqat daraxt ekish bilan cheklanish emas, balki uni asrash madaniyatini ham shakllantirishimiz muhimligini aytish o'rindir. Daraxt ekishdan ko'ra saqlashga ustuvorlik berishni odatga aylantirmog'imiz joiz. Chunki bugungi kundagi oqova suv muammosi yoki suv taqchilligi daraxtlarning qurishiga sabab emas, balki ular haqida o'z vaqtida yetarli darajada tashvishlanmaganimiz natijasidir.

Vaholanki, har bir qurigan daraxt – bu havo ifloslanishi, haroratning yanada ortishi va inson salomatligiga tahdid. Shu bois har bir fuqaro, har bir tashkilot tabiatga befarq bo'lmisligi kerak. Daraxtlar toza havo manbai, sog'lom umr kechirishimiz kafolati. Demak, uni asrash burchimiz, bir daraxtni saqlab qolish – bu kelajakni saqlab qolishga hissa qo'shishdir.

Shohruh O'KTAMOV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi
huzuridagi Yoshlar parlamenti
raisi o'rinbosari.

Qulaylik

Mahalla idorasi uchun zamonaviy bino

Marhamat tumanidagi Xo'jaariq mahallasida yaqinda fuqarolar yig'ini idorasining yangi binosi foydalanishga topshirildi.

– Kundalik hayotimizda uchraydigan ko'pgina muammo va masalalar aynan mahalla idorasida hal etiladi. Shu ma'noda, bu bino nafaqat biz, mahalla mas'ullari, balki aholi uchun ham katta imkoniyat

yaratadi, – deydi mahalla raisi Yo'lqinbek Abdiyev. – Avvalgi idoramiz juda tor va abgor holatda edi. Yangi binoda esa har bir yo'nalish – profilaktika, xotin-qizlar, yoshlar, tadbirkorlik, fuqarolarni

qabul qilish uchun alohida xonalar ajratilgan. Majlislar zali, mehmonlarni kutish xonasi, kutubxona va axborot burchaklari ham mavjud.

Xo'jaariq mahallasida 3 750 nafardan ziyod aholi yashaydi. Ilgari mahalla idorasi faoliyat ko'rsatgan eski binoda 3 ta tor xonaning

o'zida 5-6 nafar xodim joylashgan, aholini qabul qilishda ham qiyinchiliklar tug'ilardi. Yangi binodagi qulayliklar endi mahallada murojaat va muammolarning tezkor hal etilishiga xizmat qiladi.

Saminjon HUSANOV
("Xalq so'zi").



KATTA SHAHARNING

Keyingi yillarda mamlakatimizda kechayotgan urbanizatsiya jarayonlari tufayli shaharlarimiz tobora chiroy ochib, dunyoning eng rivojlangan megapolislaridan qolishmayapti. Lekin shu bilan birga hayotimizga o'sha ulkan shaharlarga xos bo'lgan muammolar kirib kelayotganidan ham ko'z yumib bo'lmaydi. Deylik, havoning ifloslanishi, tirbandliklar, avtomobil turargohlarining yetishmasligi kabi o'z yechimini kutayotgan muammolar qatorida endi elektrosamokatlarning masalasi ham bor. Bir qarashda kichik – arziymasdek ko'rinadigan bu muammo aslida inson xavfsizligi bilan bog'liq bo'lib, unga e'tiborsiz qarash og'ir oqibatlariga olib kelishi mumkin.

Bugunning gapi

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 9-iyul kuni o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida yo'l infratuzilmasini yaxshilash, xavfsizlikni ta'minlash, tirbandliklarni kamaytirish chora-tadbirlari muhkama qilinarkan, yo'llarda harakatlanish madaniyatini oshirish masalasiga urg'u qaratilgani bejiz emas.

Ko'pchilik haydovchilar kunda-kunora o'z boshidan o'tkazadigan bir holat: yarim tunda ishdan horib chiqasiz va rulga o'tirib, yo'lga tushasiz. Va shu zahoti ko'cha chiroqlarining g'ira-shira yorug'ida atrofingizdan elektrosamokatda sayr qilayotgan yoshlar o'ta boshlaydi. Ular bir-birlari bilan kimo'zarga o'yinashadi, zavqlanib qichqirishadi. Ba'zan hech ikkilanmasdan harakat yo'nalisiga teskari yurishi, svetoorning qizil chirog'ida chorrahani kesib o'tishi ham mumkin. Yaqinlashib kelayotgan avtomobilga esa mutlaqo e'tibor qilinmaydi. Shunda siz noiloj tezlikni pasaytirib, ularning sizni o'zining yo'lidan o'tib ketishini kutasiz. Chunki Xudo ko'rsatmasin, to'qnashuv yuz bersa, bundan, avvalo, samokatdagi bola jabr ko'radi. Siz esa buning uchun o'zingizni kechira olmasligingizni bilasiz...

Bu muammo faqat bizgagina xos emas. Individual harakatlanish vositalari (elektrosamokatlarning ham shular jumlasiga kiradi) butun dunyo bo'ylab ko'pchilikni tashvishga sola boshlaganiga ancha bo'ldi. Masalan, Buyuk Britaniyada 2021-yil 10 nafar foydalanuvchi to'qnashuv oqibatida olamdan o'tgan, 331 nafar og'ir jarohat olgan. Germaniyada 2022-yilda elektrosamokatlarning ishtirokida jami 442 ta baxtsiz hodisa ro'y bergan. Fransiya elektrosamokatlari 27 kishining hayotiga zomin bo'lgan. Xususan, Parijda 3 kishi hayotdan ko'z yumgan va 459 odam jarohatlangan.

Vaziyat jiddiyligi bois xorijiy mamlakatlarning hukumatlari qurilmalardan foydalanishni tartibga solishga qaratilgan bir qator chora-tadbirlarni ko'rishmoqda. Xususan, 2022-yildan buyon Xelsinkida dam olish kunlari yarim tundan keyin elektrosamokatlarni ijaraga olish mumkin emas. Yaponiyada elektrosamokatda davlat raqami va yon oynalari bo'lishi talab etiladi. Buyuk Britaniyada undan foydalanuvchi tegishli toifadagi haydovchilik guvohnomasiga ega bo'lishi shart. Daniya, Ispaniya va Norvegiyada minimal texnik standart sifatida maxsus dubulg'a kiyish joriy qilingan. Rossiya 2023-yildan boshlab yuk va yo'lovchi tashish qat'iyan taqiqlangan.

Fransiya esa bu borada eng keskin choralar ko'rgan mamlakat. Parijda 2023-yil 1-sentyabrdan elektrosamokatlarni ijaraga berish to'liq taqiqlandi. Chunki shahar hokimiyati o'tkazgan referendumda qatnashgan 100 mingdan ziyod aholining 90 foizdan ortig'i aynan shunday chora ko'rishni yoqlab ovoz berdi. Natijada Parij bu taqiqni joriy etgan Yevropadagi birinchi shahar bo'ldi.

O'zbekiston bo'yicha, afsuski, individual harakatlanish vositalari ishtirokidagi yo'l-transport hodisalari haqida alohida statistik ma'lumot

yo'q. Biroq bunday YTH bizda ro'y bermagan deb ham ayta olmaymiz.

Mamlakatimizda elektrosamokatlarni qisqa muddatga ijaraga berish (kikshering) xizmati ilk bor 2022-yilda Toshkentda yo'lga qo'yilgan. Bu ishni dastlab "YOTO CORP" mas'uliyati cheklangan jamiyati boshlagan bo'lsa, ayni paytda butun mamlakat bo'ylab o'nlab tadbirkorlik subyektlari ("Kicker", "Sun", "City Bike", "Jet", "IZZ" va boshqalar) shu biznes bilan shug'ullanadi. Bundan tashqari, "Yandeks Go" orqali ham samokat ijaraga olish imkoniyati bor. Har qanday odam ko'chalarga yondosh hududlarda terib qo'yilgan elektrosamokatlarni smartfonga yuklab olingan mobil ilovalar orqali ma'lum to'lov evaziga ijaraga olishi mumkin. Bunda mijozning yoshi, yo'l harakati qoidalarini qay darajada bilishi, sog'lig'i va boshqa holatlarini nazorat qilish imkonsiz.

Albatta, ekologik toza harakatlanish vositalaridan biri sifatida elektrosamokatlar o'z

Toshkentda velosiped yo'laklari juda kam va bori ham qisqa masofali bo'lib, to'satdan tugab qoladi. Ma'lumki, bizda veloyol'aklar piyodalar yo'lagidan faqat ranglar bilan farqlanadi. O'rtada to'siq yo'q. Bu esa piyodalarning o'zlariga ajratilgan yo'lakda xotirjam harakatlanishiga imkon bermaydi. Piyodalar yonlaridan nisbatan katta tezlikda o'tayotgan velosiped va elektrosamokatlardan xavotirlanib turadi.

afzalliklariga ega. Xususan, ulardan qisqa masofalarga borishda foydalanish taksida harakatlangandan ko'ra arzon bo'lish bilan birga tirbandliklarning kamayishiga xizmat qiladi. Biroq elektrosamokatlarning yo'llarda avtomobillar harakatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, piyodalar yo'lagida qariyalar, bolalar va nogironligi bo'lganlar uchun xavf tug'diradi. Bundan tashqari, yo'lining qatnov qismiga tashlab ketilgan samokatlarning ham og'ir oqibatlariga olib kelishi mumkin. Mana shu kamchiliklar elektrosamokatlarni harakatlanish uchun xavfli vositaga aylantirmoqda. Bunda nafaqat samokatda harakatlanayotgan shaxs, balki yo'l harakatining boshqa ishtirokchilari ham xavf ostida qoladi.

Ko'chalarimizda individual harakatlanish vositalarining ko'payishi mamlakatimizda ham bu borada xavfsizlik choralarini belgilab beruvchi tartib-qoidalarini ishlab chiqish zaruratini uyg'otdi. Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 17-iyuldagi qaroriga ko'ra individual harakatlanish vositalari velosipedlarga tenglashtirilgan bo'lib, ularni boshqarayotgan shaxslarga yangi joriy etilgan 3.34 belgisi o'rnatilgan joylarda harakatlanish taqiqlanadi. Shuningdek, ular velosipedchilar va piyodalar uchun maxsus yo'laklar mavjud bo'lganda yo'lining qatnov qismida harakatlanishi mumkin emas. Piyodalar o'tish joylarida esa elektrosamokatlarning minib emas, yetaklab o'tilishi kerak.



“KICHIK” MUAMMOLARI

Yoshga doir cheklovlar ham bor. 14 yoshdan kichik bolalar elektrosamokatlarni faqat turarjoy dahalari, istirohat va hayvonot bog'larida, bolalar maydonchalari, ko'ngilochar joylarda hamda yopiq hududlarda boshqarishi mumkin.

Bundan tashqari, bir yoki bir nechta individual harakatlanish vositalarini shatakka olish, rulni ushlamasdan yoki bir qo'lda ushlab harakatlanish, odam yoki yuk tashish, harakat chog'ida telefonidan

qotirgan mutaxassislar, avvalo, bir jihatni ta'kidlashadi: elektrosamokatlarning ko'ngilxushlik vositasi emas. U insonga zarurat tug'ilganda A nuqtadan B nuqtaga borish uchun qulaylik yaratishga xizmat qilishi kerak. Bizda esa samokatlardan, asosan, yoshlar kechki payt yoki yarim tunda sayr qilish, tezlikdan zavq olish uchun foydalanishyapti.

Balki buning hech qanday yomon tomoni yo'qdir. Lekin samokatlarni ijaraga olgan yoshlar yo'l harakati qoidalarini bilmasligi yoki bila turib, unga amal qilmasligi xatari vaziyatlarni yuzaga keltiryapti. Qarorda "individual harakatlanish vositalarini boshqaradigan shaxslar harakat davomida yo'l harakati qoidalariga qat'iyyat amal qilishi kerak"ligi belgilab qo'yilgan bo'lsa-da, ularga bu qoidalarini o'rgatish va rioya qilinishini nazoratga olish mexanizmi yaratilmagan. Har qanday odam, qoidalarini bilish yoki bilmasligidan qat'i nazar, elektrosamokatni ijaraga olishi mumkin.

Bugungi kunda elektrosamokatlarni ijaraga beruvchi ayrim operatorlar ularda harakatlanish bo'yicha qisqacha kurslar tashkil etyapti, ilovalarga eslatmalar kiritishyapti, internetda videoqo'llanmalar chiqarishyapti. Biroq bu yetarli emas. Shunday tartib o'rnatish kerakki, bunda zarur qoidalarini bilmaydiganlar elektrosamokatlarni ijaraga olish huquqiga ega bo'lmasin! Masalan, tashkil etilgan o'quv kursini tugatganligi to'g'risidagi sertifikat QR-kodini kiritmasdan turib, elektrosamokatni harakatga keltirib bo'lmaydigan qilib qo'yish mumkin. Zamonaviy texnologiyalar bunga imkon beradi.

O'ylantiradigan masalalardan yana biri – shaharlarimiz infratuzilmasining individual harakatlanish vositalariga moslashtirilmagani. Masalan, Pekinda siz elektrosamokatga minib, maxsus yo'laklar orqali harakatlangan holda shaharning istalgan joyiga borishingiz mumkin. Manzilga yetguningizcha biror marta yo'lining avtomobillar uchun mo'ljallangan qismi bo'ylab yurishga majbur bo'lmaysiz. Ammo

O'zbekistondagi birorta shahar bunday infratuzilma bilan maqtana olmaydi. Xususan, Toshkentda velosiped yo'laklari juda kam va bori ham qisqa masofali bo'lib, to'satdan tugab qoladi. Ma'lumki, bizda veloyol'aklar piyodalar yo'lagidan faqat ranglar bilan farqlanadi. O'rtada to'siq yo'q. Bu esa piyodalarning o'zlariga ajratilgan yo'lakda xotirjam harakatlanishiga imkon bermaydi. Piyodalar yonlaridan nisbatan katta tezlikda o'tayotgan velosiped va elektrosamokatlardan xavotirlanib turadi. Ayniqsa, yosh bolalarini yetaklab yurganlar uchun bu ancha noqulayliklar tug'diradi.

Individual harakatlanish vositalari – piyodalardan tez, ammo avtomobillardan sekin harakatlanadigan alohida transport turi. Ular uchun maxsus yo'laklar ajratish eng yaxshi yechim bo'ldi. Bugun poytaxtimizda yo'llarni rekonstruksiya qilish bo'yicha keng qamrovli ishlar boshlangan. Bu jarayonda mutaxassislar mazkur masalalarga ham e'tibor qaratishsa, yaxshi bo'lardi.

E'tiborga molik yana bir muammo – elektrosamokatlarning uchun turargohlar masalasi. Bugun shaharlarimizda ijaraga olishga tayyorlab qo'yilgan eletrosamokatlarning yo'l chetida, harakatga xalal bermaydigan holda turadi. Biroq foydalanib bo'lingan samokatlarning istalgan joyda qoldirib ketilayapti. Ayniqsa, yo'lining harakat qismiga tashlab ketilgan samokatlarning haydovchilari uchun katta xavf tug'diradi. Noxush holatlarning oldini olish uchun operatorlar ijarachilardan harakat yakunlangach, elektrosamokatni eng yaqin "parkovka"ga olib borib qo'yishni talab qilishi mumkin. Lekin hamma operatorlar ham bunday yo'l tutayotgani yo'q. Vaholanki, ijarachilarning ma'lum shartlarini qo'yish, qoidalariga amal qilmagan foydalanuvchilarni "bloklab", xizmatdan foydalanish imkoniyatidan mahrum qilish orqali tartibga chaqirishning iloji bor. Shuningdek, bugungi texnologiyalar davrida piyodalar serqatnov hududlarda tezlikni avtomatik ravishda pasaytirish ham mumkin.

Elektrosamokatlarning nisbatan kam joyni egallashi, ekologiyaga zarar yetkazmasligi jihatdan shahar sharoiti uchun kelajak transporti. Lekin unda harakatlanish xavfsizligi ta'minlanmas ekan, jamiyat uchun jiddiy muammolarni keltirib chiqaraveradi. Shunday ekan, mamlakatimizda ushbu transport vositasidan foydalanish madaniyatini shakllantirishimiz, amaldagi qoidalariga rioya qilinishini qat'iyyat nazoratga olishimiz talab etiladi. Bu har birimizning xavfsizligimizni ta'minlash uchun kerak.

Jamoliddin TO'XTASHEV
(“Xalq so'zi”).



VAKILLARIMIZ – OSIYO ChEMPIONATIDA SOVRINDOR

Qirg'iz Respublikasi poytaxti Bishkek shahrida sport kurashlari bo'yicha yoshlar (U-20) o'rtasidagi Osiyo chempionati o'z yakuniga yetdi.

Erkin kurashchilarimiz qit'a birinчилиgining ikkinchi kun dasturidan o'rin olgan bahslarda bittadan oltin, kumush va bronza medallarini qo'lga kiritdi.

92 kilogrammgacha vazn toifasida yurtimiz sharafini himoya qilgan Sherzod Poyonov finalda eronlik Tuhid Amirali Nuriyini 6:1 hisobida mag'lubiyatga uchratib, ikki karra Osiyo chempioniga aylandi. Hamyurtimiz 2024-yili Tailandda o'tgan chempionatda ham oltin medalga ega chiqqandi.

Umarxon Mo'yidinov (-74 kg.) murosasiz kurashlarda kumush, Abdulloh Habibullayev (-61 kg.) bronza medallariga sazovor bo'ldi.



ANVAR ANVAROV O'Z REKORDINI YANGILADI



Finlyandiyaning Yoensuu shahrida yengil atletika bo'yicha xalqaro musobaqa tashkil etildi. Unda qatnashgan O'zbekiston terma jamoasi a'zosi Anvar Anvarov oltin medalga sazovor bo'ldi.

E'tiborlisi, hamyurtimiz so'nggi urinishda 8,25 metr uzunlikka sakrab, bir necha hafta muqaddam Toshkentda o'tgan xalqaro turnirda o'zi o'rnatgan mamlakat rekordi (8,23 metr)ni yangiladi va mazkur natija turnirda oltin medal keltirdi. Ikkinchi o'rin kubalik Aniel Molina, uchinchi pog'ona mezbongar vakili Kristian Pulliga nasib qildi.

Mazkur musobaqaning ayollar o'rtasidagi balandlikka sakrash dasturida ishtirok etgan Barno Sayfullayeva 1,85 metrlik urinishlar hisobiga ko'ra bronza medalni qo'lga kiritdi. Luize Ekman (Shvetsiya), Ella Mikkola (Finlyandiya) mos ravishda birinchi va ikkinchi o'rindan joy oldi.

YAKKALIK BAHSLARIDA 13 TA MEDAL

Koreya Respublikasining Muju shahrida uch kun davom etgan taekwondo bo'yicha "WT Diamond Games" turniri yakunlandi.



Musobaqaning so'nggi kuni doirasida yakkalik bellashuvlar o'tkazildi. Unda O'zbekiston terma jamoasining 16 nafar vakili ishtirok etib, ularning 13 nafari shohsupadan joy oldi. Sportchilarning kun yakunida 8 ta oltin, 2 ta kumush va 3 ta bronza medallarini qo'lga kiritdi.

Jahongir Xudoyberdiyev (-58 kg.), Diyorbek To'xtaboyev (-68 kg.), Ozodbek Mamadaliyev (-80 kg.), Yodgorbek Jo'raboyev (+80 kg.), Madina Shoniyozova (-49 kg.), Shabbona Abduvaliyeva (-57 kg.), Ozoda Sobirjonova (-67 kg.), Svetlana Osipova (+67 kg.) – oltin, Omonjon Otajonov (-58 kg.), Azizbek Abduqodirov (+80 kg.) – kumush, Kamronbek Mansurov (-58 kg.), Mirdiyor Mirayimov (-58 kg.), Sevinch Hayitova (-67 kg.) bronza medallariga ega chiqdi.

JANG MANZILI O'ZGARDI

Shu yilning 14-sentyabr kuni professional boksning ikkinchi eng yengil vazn toifasidagi mutlaq chempionlik bahsi o'tkazildi.

Mazkur superjangda "WBA Interim" kamari sohibi, yurtdoshimiz Murodjon Ahmadaliyev yaponiyalik chempion Naoya Inoue bilan to'qnash keladi. Avvalroq bu jang Yaponiyaning Tokio shahrida o'tkazilishi haqida xabarlar tarqalgandi. Ammo kuni kecha mezbongar tomoni bo'lajak uchrashuvni rasman tasdiqlab, turnir Nagoya shahridagi "IG Arena" majmuasida bo'lib o'tishi haqida xabar berdi. Ma'lumot o'rinda aytish joizki, "IG Arena" yangi qurib bitkazilgan inshoot bo'lib, 17 ming muxlisni o'z bag'riga sig'dira oladi va Yaponiyadagi eng yirik sport majmuasidir.

Sunnatilla ISLOMOV
(“Xalq so'zi”) tayyorladi.

Buxoro davlat pedagogika instituti jamoasi institut rektori Bahodir Ma'murovga volidai muhtaramasi	“Xalq so'zi” va “Narodnoye slovo” gazetalarini tahririyat jamoasi O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalisti
Matlab MA'MUROV ning vafoti munosabati bilan chuqur ta'ziya izhor etadi.	Sunnatilla SAYDALIYEV ning vafoti munosabati bilan marhumning oila a'zolari va yaqinlariga chuqur ta'ziya izhor etadi.

Dubayda bo'lib o'tgan 57-xalqaro kimyo olimpiadasida O'zbekiston terma jamoasining barcha a'zolari g'oliblikni qo'lga kiritdi – 2 tadan oltin va kumush, jami 4 ta medalga ega bo'ldi.

Barchamiz uchun Vatan bitta! Bitta maqsad bizni birlashtiradi. U ham bo'lsa,
Vatan taraqqiyoti va xalqimiz farovonligidir.Shavkat MirziYoyev,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

Barhayot satrlar

MEN NECHUN
SEVAMAN
O'ZBEKISTONNIAbdulla ORIPOV,
O'zbekiston Qahramoni,
xalq shoiri.

Men nechun sevaman O'zbekistonni
Tuprog'in ko'zimga aylab to'yo.
Nechun Vatan deya yeru osmonin,
Muqaddas atayman, atayman tanho.

Aslida dunyoda tanho nima bor,
Paxta o'smaydimi o'zga elda yo?
Yoki quyoshimi sevgimga sabab?
Axir quyoshli-ku butun Osiyo.

Men nechun sevaman O'zbekistonni?
Bog'larin jannat deb ko'z-ko'z etaman,
Nechun ardoqlarkan tuprog'ini men?
O'paman: "Tuprog'ing bebaho, Vatan!"

Aslida tuproqni odil tabiat
Taqsim aylagan-ku Yer yuziga teng.
Nechun bu tuprog deb yig'ladi Furqat,
O, Qashqar tuprog'i, qashshoqmiding sen?!

Xo'sh, nechun sevasan O'zbekistonni,
Sababini aytgin desalar menga,
Shoirona go'zal so'zlardan oldin
Men ta'zim qilaman ona xalqimga:

Xalqim, tarix hukmi seni agarda
Mangu muzliklarga eltgan bo'lsaydi,
Qorliklarni makon etgan bo'lsayding,
Mehrim bermasmidim o'sha muzlarga?

Vatanlar,Vatanlar,
Mayli, gullasin,
Bog' unsin mangulik muzda ham, ammo
Yurtim, seni faqat boyliklaring-chun
Sevgan farzand bo'lsa kechirma aslo!

Vatan va vatanparvarlik
haqida maqollar

*Vatani borning baxti bor,
Mehnati borning – taxti.*

Vatansiz inson – kuysiz bulbul.

*Ona yurtning omon bo'lsa,
Rangi ro'ying somon bo'lmas.*



BOSQINCHIGA BO'Y BERMAGAN BUYUK OBIDA

Ona diyorimiz yoshi ming yillar bilan o'lchanadigan azim shaharlari,
yuzlab nodir me'moriy yodgorliklari, masjid, minoralari, maqbarayu
madrasalari bilan dunyoning eng qadimiy mamlakatlariga tenglasha
oladi.

Meros

Sharq durdonasi – qadimiy va navqiron Buxoroning betakror obidalarida Poyi Kalon me'moriy majmuasida joylashgan Minorai Kalon (Katta minora) alohida o'rin tutadi. Markaziy Osiyo me'morchiligining eng nodir va mukammal namunalaridan biri sifatida jahon e'tirofiga sazovor bu minora salkam to'qqiz asrning suronlariga guvoh bo'lgan.

Yetti iqlimdan tashrif buyurgan sayyohlarni yuz yillar osha hayratga solib kelayotgan betakror minoramizni Sharqdagi ilk musulmon turkiy sulola – qoraxoniylar davrining bebaho merosi deyish mumkin.

Minorai Kalon qoraxoniylar sulolasi hukmdori Arslonxon Muhammad ibn Sulaymon davrida, ya'ni 1127-yilda qurib bitkazilgan. Bu paytda yurtimiz me'morchiligida pishiq g'ishtlardan foydalanish yo'lga qo'yilgan edi. Minora bag'ridagi tarixiy bitiklar ham bu ma'lumotni isbot etadi.

Minorai Kalon bilan bog'liq ko'plab tarixiy ma'lumotlar, shuningdek, rivoyatlar bizgacha yetib kelgan. Masalan, uning qurilishi haqida. Rivoyatlarga ko'ra minoraning bosh me'mori – usta Baqo g'ishtlarni pishirib bo'lgach, ularni joyiga termay, g'oyib bo'ladi va uch yildan so'ng qaytib kelib, g'ishtlarning pishiqligiga ishonch

hosil qilgach, qurilish ishlarini davom ettiradi...

Minoraning tashqi ko'rinishi betakror naqshlar bilan bezatilgan. G'ishtlar handasaviy shakllar hosil qilib terilgan, bu esa minoraga alohida go'zallik bag'ishlaydi. Inshootning bezaklari orasida kufiy va nasx xatlarida yozilgan xattotlik namunalarini joy olgan bo'lib, ularda Qur'on oyatlari, minoraning qurilish tarixi, quruvchilarning nomlari, shuningdek, hukmdorlarning unvonlari aks etgan. Minora ichida yuqoriga olib chiquvchi 104 pog'onali aylana zinapoya mavjud bo'lib, uning tepasidan shahar manzarasini tomosha qilish mumkin.

Minorai Kalon asrlar davomida ko'plab voqealarga guvoh bo'lgan. Ma'lumki, XIII asr boshlarida Chingizxon boshchiligidagi mo'g'ullar bosqini Movarounnahrning qator shaharlarini vayronaga aylantirdi. Minglab insonlar nobud bo'ldi, daryodaryo qonlar oqdi. Shu bilan birga, qanchadan-qancha me'moriy obidalar yer bilan yakson qilindi.

Rivoyatlarga ko'ra 1220-yilda mo'g'ul qo'shinlari tomonidan Buxoroning katta qismi vayron qilingan bo'lsa-da, minoraning mahobati va balandligidan hayratga tushgan Chingizxon uni buzmaslikni tayinlagan ekan. Shu bois O'rta asrlarda u hozirgidek o'z salobatini va mahobatini saqlab qolgan. Minorai Kalon temuriylar, shayboniylar, ashtarxoniylar, Buxoro

amirligi, Chor Rossiyasi bosqinidagi ko'plab voqealar, urush va qirg'inlarning tilsiz shohididir.

1920-yilda M. Frunze boshchiligidagi qizil armiyaning Buxoroga bostirib kirishi jarayonida Minorai Kalon o'qqa tutiladi. Natijada minora jiddiy shikastlanadi, ko'plab g'ishtlar ko'chib tushadi, naqshlar o'chib ketadi. O'q izlari tarixning achchiq xotirasi sifatida saqlanib qoladi.

1924-yilda minora devorining kichik qismi va muqarnaslari qayta tiklandi. Buxoroning fidoyi farzandlaridan biri – Usta Ochil Bobomurodov 1960-yilda minoraning po'ydevorini ta'mirlab mustahkamlaydi. 1997-yilda Buxoroning 2500-yilligi munosabati bilan minora to'liq rekonstruksiya qilinadi. Keyingi yillarda ham minorada ta'mirlash ishlari olib borilmoqda.

Minorai Kalon... Buyuklik, iymon-e'tiqod va mangulik timsoli...

Ehtimol, u Abduxoliq G'ijduvoni, Sayyid Mir Kulol, Bahouddin Naqshband va boshqa ne-ne buyuk zotlarga bitmas-tuganmas ilhom baxsh etgandir?

Bugungi kunda Minorai Kalon YUNESKoning Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan bo'lib, Buxoroning eng mashhur sayyohlik maskanlaridan biri hisoblanadi. Bu yerga tashrif buyurgan har bir inson tarix nafasini, asrlar shukuhini, ajdodlarimiz qudrati va dahosini his etadi. Har birimizning qalbimizda cheksiz faxr-iftixor tuyg'ularini uyg'otadi.

Xusrav HAMIDOV,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa
doktori.

QOYATOSHLARGA BITILGAN O'TMISH SIRLARI

Vatanimiz insoniyat madaniy taraqqiyotining qadimiy markazlaridan biri hisoblanadi. Chunki arxeologlar o'lkamizning tog' va tog'oldi hududlarida, g'orlarda qoyatosh yodgorliklari, ya'ni tosh yuzalariga ishlangan odam, hayvon, qurol-yarog', uy-ro'zg'or, kiyim-bosh va boshqa buyumlarning tasvirlarini ko'rib, ko'plab muhim ma'lumotlarga ega bo'lishgan.

Moziydan sado

O'zbekistondagi qoyatosh rasmlari mazmunan boy, tasviriy jihatdan xilma-xil. Ulardagi odamlar, ov jarayonlari, hayvonlarning o'zaro urishayotgani, sher, yo'lbars, qoplon kabi yirtqich hayvonlarning to'qnashuvi ifoda etilgan manzaralar kishi e'tiborini tortadi.

Bugungi kunda O'zbekistonning tog'li va tog'oldi hududlarida mezolitdan keyingi O'rta asrlarga qadar xronologik davomiylikda 180 dan ortiq qadimiy qoyatosh suratlari saqlangan joylar topilgan. Yodgorliklar, asosan, mamlakatimizning shimoli-sharqiy (G'arbiy Tyan-Shan, Turkiston, Oloy tog' tizmalari),

markaziy (Nurota, Zarafshon tizmalari) va shimoli-g'arbiy (Bukantau, Tamdtau, Sulton Uvays, Kuljuktat) qismlarida joylashgan. Yurtimizdagi eng qadimgi qoyatosh rasmlari Zarautsoyda bo'lib, buqa va echkilarni ovlash bilan bog'liq manzaralar mezolit hamda neolit davrining miloddan avvalgi VIII – IV ming yilliklariga mansub.

Olimlar qoyatosh suratlarini ov va chorvachilik bilan shug'ullangan odamlar chizgan deb hisoblashadi. Shu tariqa ular bir vaqtlar bu yerda oziq-ovqat, o'simliklar va hayvonot dunyosiga boy iqlim sharoiti mavjud bo'lganligini bildirgan.

Yurtimizdan topilgan qoyatosh suratlari yana shunisi bilan ahamiyatli, ularni o'rganish asnosida ajdodlarimiz, xususan, turkiy qavmlar tarix sahnasiga qachon chiqqani, Markaziy Osiyo mintaqasida, jumladan, O'zbekiston hududida qaysi davrlarda yashagani, ular yaratgan madaniyatlar, tamaddunlar shu o'lkaning dunyoga tarqalganini bilib olish mumkin.

Oltay tog'lari va Tyan-Shan (Tangritog') oralig'idagi hududlar o'n ming yillar davomida yurqliq qavmlarning beshigi bo'lib, bu yerlarda aholi zich joylashgan, madaniyatlar rivojlangan, sivilizatsiyalar qaror topgan.

Ilk qoyatosh rasmlarining paydo bo'lishi miloddan avvalgi o'ttizinchi ming yillikka taalluqli deya baholanadi. Ramziy tasvirlar deb ta'riflash mumkin bo'lgan piktogrammalarning yuzaga kelishi miloddan avvalgi yigirmanchi ming yillikka, shrift tasvirlari sifatida ko'riladigan

petrogliflar esa miloddan avvalgi o'n sakkizinchi – o'n beshinchi ming yilliklarga borib taqaladi. Petrogliflardan alifbo va yozuv vujudga kelgan.

Prezidentimiz tashabbusi bilan bunyod etilayotgan O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi ekspozitsiyalarida bevosita islomdan avvalgi sivilizatsiyalar, xususan, yurtimiz hududidan topilgan ilk insoniyat manzilgohlari, san'at va madaniyatning dastlabki namunalariga alohida o'rin ajratilishi ko'zda tutilgan. Shu bois markazdan mamlakatimiz hududidan topilgan qoyatosh suratlari ham alohida o'rin berilishi kutilmoqda. Bu esa tariximizning qadimiy va o'rganilmagan sahifalarini chuqur tadqiq etish va keng miqyosda targ'ib qilinishida katta ahamiyat kasb etadi.

Alimardon HAYITOV,
O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi
markazi yetakchi ilmiy xodimi.

Hayot haqiqatlari

Yurtingiz jannat ekan-ku!

...Haj ziyoratini ado etarkanman, ruhim poklandi, qalbm uyqudan uyg'ongandek bo'ldi. Go'yo jismimda tiriklik suvi qayta yugurgandek, o'zimni onadan qayta tug'ilgandek his qildim.

Muborak safarda, ayniqsa, shunday bir voqea yuz berdiki, undan butun umrik saboq oldim. "Vatanni sevmoq iymondandir", degan ulug' naqla juda teran hayotiy haqiqat mujassam ekaniga yana bir bor to'la amin bo'ldim. Avvalo, Payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallam qadamlari ilk insoniyat manzilgohlari, san'at va madaniyatning dastlabki namunalariga alohida o'rin ajratilishi ko'zda tutilgan. Shu bois markazdan mamlakatimiz hududidan topilgan qoyatosh suratlari ham alohida o'rin berilishi kutilmoqda. Bu esa tariximizning qadimiy va o'rganilmagan sahifalarini chuqur tadqiq etish va keng miqyosda targ'ib qilinishida katta ahamiyat kasb etadi.

Bir kuni sudanlik ziyoratchi bilan suhbatlashib qoldik. U O'zbekistonda hech qachon bo'lmagan ekan. Mamlakatimiz haqida gapirib berishimni so'radi.

– Bizda to'rt fasl mukammal tarzda bir xilda almashinib keladi, – deya so'z boshladim. – Qishda oppoq qor oq cho'yshabdek to'shaladi. Bahorda qorlar erib, jilg'alar soylarga enadi. Hamma yoqni yashillik qoplaydi. Bog'u xiyobonlarni gullarning xush ifori, qushlarning sayrog'i tutib ketadi. Yozda quyoshning zarrin nurlari mevalarni bolga to'ldiradi. Kuzda pishiqchilik, serobgarchilik... Tabiat oltinrang tusga kiradi... So'zlarimni tinglayotgan inson hayrat to'la ko'zlarini menga tikib: – Yurtingiz jannat ekan-ku, – deb yubordi.

Men ich-ichimdan faxrlanib ketdim...

Abdug'afur MAMATOV,
Toshkent shahri

Akademik M. Mirzayev nomidagi Bog'dorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiy-tadqiqot instituti hamda Germaniyaning Xalqaro hamkorlik jamiyati (GIZ) o'rtasida Anglashuv memorandumini imzolandi.

Xalq so'zi

Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi – 229. Buyurtma G-642. 11 845 nusxada bosildi. Hajmi – 3 taboq. O'fset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; Kotibiyat 71-259-74-53;
e'lonlar 71-259-74-55.

Tahririyatga kelgan qo'yozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator M. Begumratov tomonidan sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir F. Bozorov.
Musahhih S. Islomov."Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni – 20.55 Topshirildi – 02.05

1 2 3 4 5 6